

MUQIMIYNING “AXTARING” RADIFLI G’AZALI TAHLILI

Sobitova Robiyaxon Salohiddin qizi

Qo‘qon davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

rob yaxonsobitova04@gmail.com

+998917392805

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.08.2024

Revised: 30.08.2024

Accepted: 31.08.2024

Ushbu maqolada Qo‘qon adabiy muhitining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan muqimiyning “Axtaring” radifli g‘azali tahlilga tortilgan. G‘azalning mavzusi, tematik-kompozitsion, g‘oyaviy-badiiy jihatlari va unda qo‘llanilgan lafziy san‘atlar yuzasidan ayrim mulohazalar keltirib o‘tilgan.

KALIT SO‘ZLAR:

*Muqimiy, axtaring,
izlang, oshiq, gado,
yor, hajr, sahro.*

Podshoh yo‘qlatsalar, nogoh gado, deb axtaring,
Tutmang hargiz nomimni baxtiqaro deb axtaring.
Kimsa bilmaydur mani, nom-u nasab qilsang bayon,
Lola yanglig‘ dog‘i g‘amga mubtalo deb axtaring.
Layli topg‘il, desalar Majnuni sargardonini(ng)
Ko‘zlarining yoshidur rangi xino, deb axtaring.
Istagan chog‘da topay deb bo‘lsa ko‘ngulda xayol,
Qomatidur dog‘i mehnatdin duto, deb axtaring.
Hajr vodiysida kezhay doimokim xo‘blar,
Xoki poyidur ko‘ziga to‘tiyo, deb axtaring.
Dahr zulmidin sirishki tinmay oqib aylanur,
Charx javridin boshida osiyo, deb axtaring.
Yor visoliga yetolmay qolmish ul kunkim, Muqimiy,
Ushbu boisdan o‘lumdug‘a rizo, deb axtaring.

BADIIY SAN‘ATLAR:

Tazod

Podshoh-gado

tanosub

nom-nasab

talmeh

Layli, Majnun

Tashbeh

Lola yanglig'

Qomati mehnatdin duto

Istiora

Lola yanglig' dog'i g'amga muftalo

MATNIY KOMPOZITSIYA:

Band- 7

Misra- 14

Sarlavha- "Axtaring" radifli g'azali

Janr qaydi- g'azal

Yozilgan sanasi- XIX asr

Joyi- Qo'qon

Avtopsixologik, mediativ, ishqiy lirika

TEMATIK KOMPOZITSIYA:

1. Tezis:

Shoirni yo'qlaguvchi mahbubi oldida o'zini gado kabi tutadi, uni ismi bilan chaqirmasligini, baxtiqaro deb atashlarini istaydi.

2. Antitezis:

Uning nom-u nasabini aytadigan bo'lsa, hech kimsa tanimasligini, lola kabi bag'ri dog', g'amga muftalo ekanini aytadi.

3. Vositayi xulosa:

Dunyoning zulmidan ozorlangan shoir kechinmalari aks etadi.

4. Sintez:

Yor vasliga yetmoqlik sabab o'limga ham rozi ekani aytiladi.

LUG'ATLAR:

Duto- egik

Sirish- ko'zyosh

To'tiyo- aziz

NASRIY BAYONI:

Podshoh meni izlashni buyursa, gado deb izlang.

Ismimni hargiz so'zlamang, baxtiqaro deb izlang.

Nom-u nasabimni bayon qilsangiz ham kimsa meni tanimaydi,

Lola ko'ksidagi dog'dek g'amga muftalo deb meni izlang.

Laylini topgin desalar,

Sargardon Majnunlik ko'zlari qonli yoshga to'lgan deb izlang.

Ko'ngli istagan chog'da meni topishni xayol qilsa,

Qomatim mehnat-u alamdanda egilgan deb izlang.

Asl oshiqlar doim hajr vodiysida sarosar kezadi,

Yorning poyi gado uchun ko'zlariga to'tiyo deb izlang.

Olam zulmidan ko'zyoshlari tinmay oqadi,

Charxi falak jabridan boshida osiyo deb izlang.

Yor visoliga yetishga umid qilgan oshiqning

bu yo'lda o'limga ham rozi ekanligini bildirib Muqimiyni izlang.

Ushbu g'azalda shoir ilohiy ishq masalasini ilgari suradi. Yorni shoh deya ataydi. Agar yorim meni huzuriga chaqirtirsa, meni gado deya izlab keling. Nomimni hargiz tilga olmang, chunki men Haq oldida bir gado qulman xolos, deydi.

Nom- nasabimni aytib izlasangiz ham hech kimsa meni tanimaydi, shuning uchun xuddi lolaning ko'ksidagi dog'idek g'amga muhtalo bo'lgan oshiq deb izlang, topasiz demoqchi. Go'yoki yor Layli bo'lib, meni topishga amr qilsa, sargardon Majnunlik ko'zlari qonga to'lgan, shu sifat bilan izlasangiz toparsiz, demoqchi.

Istagan mahalda topishni xohlasa, qaddi mehnat-u g'amdan egilgan oshiq deb izlasin. Boshqaro shiqlardan farqim shunda, degan ma'no ifodalanmoqda.

Asl oshiqlar doim hajr vodiysida sarosar kezadi, meni shu vodiyydan izlang. Yor visoliga yetishga umid qilgan oshiqning bu yo'lda o'limga ham rozi ekanligini bildirib Muqimiyni izlang, deyilmoqda. Tariqatda o'lim ozod bo'lish vositasi hisoblanadi. Jon qushi jasadni tark etib baqo olamiga sayr etganidagina u Yor visoliga yetishdi. Shu sababdan shoir o'lsamgina yorga yetishim mumkin demoqda.

G'azal hasbi hol tarzida bitilmagan. Unda Hazrat Navoiyning ta'siri sezilib turadi. "Badoye ul-vasat" devonidan o'rin olgan "Istangiz" g'azalida ham yuqoridagi ma'no kasb etgan:

Istaganlar bizni sahroi balodan istangiz,

Vodiyi hijron ila dashti fanodin istangiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulxayr M, Navoiy asarlarningi izohli lug'ati.-ToshkentSpektrum Media Group,2024.
2. Komilov N,Tasavvuf, -Toshkent:Movarounnahr,2009.
3. Qomusiy lug'at. Mualliflar jamoasi.-Toshkent:Sharq nashriyoti,2016.
4. Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari antologiyasi, Toshkent:Tamaddun,2022.
5. Saidakbarova M.Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari.-Toshkent:Klassik.2024.